



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
 НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
 SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.comhttps://oak.uz/pages/4802

**Bugungi kunda
 Yangi O'zbekistonda
 inson qadri
 ulug'lanadigan
 adolatli, erkin
 va obod jamiyat,
 xalqparvar davlat,
 farovon hayot barpo
 etishga qaratilgan
 islohotlarimiz jadid
 bobolarimizning
 ezgu g'oya va
 dasturlariga har
 jihatdan uyg'un va
 hamohangdir.**

Shavkat MIRZIYOYEV

**“Jadidlar: milliy
 o'zlik, istiqlool va
 davlatchilik
 g'oyalari”**

“Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat botqog'idan qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar.



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot. uz

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'liq Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Ramziddin Abdusatorov
Okila Turakulova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV
Bibimariyam RAHMONOVA
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

M U N D A R I J A

TADQIQOT

Salima Jumayeva. Ikrom Otamurod she'riyatida fonetik tejamlilik va ortiqchalikning uslubiy xoslanishi.....	3
Botir Zaripov. "Ajdar" mifologemasi va lingvopoetikasi ("Xamsa" asari misolida).....	6
Baxodir Sherbekov. O'zbek va nemis tillarida paremiologik birliklarning muqobillik darajasi.....	8
Muxlisa Yigitaliyeva. Ornitonimlarning ikkilamchi ramziy ma'nolarining rivojlanishi.....	10
Xasan Gafforov. Ingliz va o'zbek tillarida gender belgili frazeologik birliklarni o'rganish mezonlari.....	13
Xurshida Djalilova. XVIII asr ingliz va XX asr boshi o'zbek sayohat adabiyotida ma'rifat masalalarining aks etishi.....	14
Madina Muhammadaliev. Tibbiyot sohasi bilan bog'liq kasb-hunar nomlarining leksik-semantik xususiyatlari.....	20
O'tkir Ostonov. "Qutadg'u bilig" ning nomlanishi va asar nomidagi "qut" va "bilig" so'zlarining lug'aviy ma'nolari.....	22
Sh.Nizamova, Nilufar Astanaqulova. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi tasviriy matn haqida.....	24
Sitorabonu Ataulayeva. Ketrim Mensild ijodida ayol obrazi.....	26
Dilnoza Boymaxmatova. Ona tili ta'limida gnoseologik yondashuv orqali yozma nutqni takomillashtirish.....	30
Habiba Ergasheva. Yangilangan shakl mohiyati (Shoir Faxriy ijdodi misolida).....	34
Latofat Fayziyeva. O'zbek tilida "harakat tarzi" ma'nosining ifodalanishi.....	36
Sabohat Muxammadova. Maqol va boshqa paremiologik birliklar.....	38
Sadoqat Rajabova. Samarqand hududida yashovchi o'zbeklashgan etnik arablar.....	40
Uyg'un Xamroyev. Fransuz, ingliz va o'zbek tillarida diplomatiya leksikasining dastlabki shakllanish bosqichlari.....	42
Yulduz Tursunova. Abdulla Qahhor hikoyalarida uchrovchi turkiy va arabiy ayollar ismining leksik-semantik va grammatik xususiyatlari.....	45
Yulduz Xaitova. Ra'no Uzoqova va Shafoat Rahmatullo Termiziy ijodida-folkloran'analari.....	48
Botir Oqbutayev. Tasavvuf bilimdoni.....	50
Xuriyat Xudoymurodova. Biografik qissalarda ona obrazi (O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi misolida).....	52
Komiljon Qarshiyev. G'afur G'ulom ijodining janr xususiyatlari.....	54
Sherali Bazarov. Jurnalist va bloggerlar nutqining paragmalingsistik xususiyatlari.....	56
Gulmera Qurbonova. So'zlarni semasiologik va onomasiologik nuqtayi nazardan qiyoslash va tahlil qilish.....	59
Asliddin Obidov. Markaziy Osiyolik mutafakkirlar qarashlarida bag'rikenglik g'oyalarining shaxs shakllanishiga ta'siri.....	61
Hulkar Jo'raqulova. O'xshatishlarning lingvokulturologik xususiyatlari (Qoraqalpog' va o'zbek tilidagi o'xshatishlar misolida).....	66
Akram Hamdamov. G'am bandining badiiy tasviri.....	68
Pulat Fozilov. Ingliz va o'zbek tilidagi fiziologik holat fe'llarning semantik xususiyatlari.....	69



Feruza Abdujabbarova. "Qutadg'u bilig"da qo'llanilgan maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari	74
Hulkar Aliqulova. To'y qo'shiqlarida "kelin" obrazi tahliliga oid mulohazalar	75
Nurali Mavlonov. Pedagoglarning axborot kompetentligini rivojlantirishda kasbiy kompetentlikning zaruriyati	78
Shahnoza Qarshiyeva. Ingliz va o'zbek tillarida innovatsion nutqiy birliklarning shakllanish mezonlari	81
Umida Ibadullayeva. Ingliz tilini o'rganish jarayonida talabalarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi	83
Hoshim Ahmedov. O'zbek adabiyotida adolatli podsho obrazi tadriji	85
Ilyosbek Sharipov. Inson kapitalining rivojlanish yo'nalishlari	87
Zamira Porsiyeva. Nasrda majoz va uning o'ziga xosligi	91
Sojida Ashirova. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish muammolari	92
Fozilbek Xamrayev. O'zbek tilida mustaqillikdan oldingi leksik taraqqiyot va milliy lashtirish masalasi	95
Osiyoxon Hoshimova. Motivning tarixiy-genetik asoslari, tadrijiy takomili	99
Nigora Karimova. Chet tillarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning o'ri va roli	101
Maftuna Mustafayeva. Theoretical foundations of the modality category	103
Nilufar Tillayeva. Developing writing skills using socratic seminars	104
Fotima Karimova. Development of writing competence in foreign language students through pedagogical technologies	106
Mohinur Soatova. Humor in english and uzbek languages	108
Fotima Maxmudova. Ict in primary education: potential and enabling factors	110
Dilafroz Salimova. Technologies for developing graphic literacy in future teachers through integrative approach	113
Nilufar Babajanova, Mukharram Alimova. Exploring woman's inner world by using literary devices	114
Khalifa Paluanova. Modern type of language teaching is pragmalinguodidactic	117
Zuhra Jo'rayeva. The role of critical thinking in the development of english writing skills	119
Nozima Kodirova. Analysis of the concept of "wealth", analyzes based on the text of a. j. cronin's novel "the citadel"	121
Rano Bazarbayeva. Cluster methods of learning english	122
Elyor Ruzikulov. Structural and semantic analysis of paremiological units	124
Дилафруз Туйчиева. Русские литературные классики и их влияние на мировую литературу	126
Светлана Усманова. Роль и значение русского языка в современном обществе	127
Машхура Хафизова, Севиля Бадалова. Технология формирования лексических навыков учащихся начальных классов	129
Ирина Чернобровкина. Цифровизация образования и ее влияние на преподавание русского языка студентам технических вузов	131
Shoira Isayeva. Креативное мышление и деятельность на уроках литературы	135

TAHLIL

Halim Saidov. Farg'ona jurnalistikasi tamal toshi	137
Zebiniso Rasulova. O'zbek xalq ertaklarining tadqiqi masalalari	139
Manzura Narziqulova. Folklor va yozma adabiyot munosabatining o'rganilishiga doir	141
Nasiba Bozorova, Yarmuhammad Madaliyev. Nizom ul-Mulkning davlat boshqaruviga doir qarashlari	142
Erkin Raxmonov. Ajib muammoli adabiy usul	144
Nilufar Umarova. Islom etikasining badiiy tafakkur tadrijida tutgan o'ri	145
Rayxon Jumanazarova. O'zbek she'riyatida inson va uning badiiy olami	148
Saodat Muminova. Abdulla Oripovning intellektual she'rlari tahlili	150
Dilnavoz Berdiyeva. O'zbek ayollar she'riyati shakllanishi, tadriji va o'ziga xosligi	152
Shahzodbek Ruzmetov. Turk shoiri Lamii Chalabiyning adabiy merosi va "Farhod va Shirin" dostoni	154
Parizoda Axrorxo'jayeva. Abdulla Avloniyning "Biz va siz" dramasida obrazlar galeriyasi (Ayollar obrazi misolida)	156
Muhabbatxon Akbarova. Muhayyir ijodida Lafziy san'atlarning o'ri	159
Zulayho Rahmonova. Navoiy asarlarida ishq savdosi	162
Oydin Tuychiyeva. Faxriy Hiraviyning tatabbu' yaratish mahorati	164
Sultonbek Boltaboyev. Arab tilidagi murojaat yuklamalari va ularning o'zbek mumtoz she'riyatida qo'llanilishi	166

METODIK TAVSIYA

Sayera Ataxanova. Ma'naviy va madaniy-ma'rifiy tadbirlar jarayonida talaba-yoshlarda sog'lom tafakkurni rivojlantirish shakl va metodlari	172
Nurjamal Abdurazaxova. O'quvchilarni matn tahlili asosida mantiqiy fikrlashga o'rgatish	174

Dilfuza Shadiyeva. O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llashning ahamiyati.....	176
Shuxratjon Madraximov, Maxfuza Madraximova, Xurshida G'ulomjonova. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 6-sinflarida adabiyot fanini o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interfaol metodlarning integratsiyasi.....	178
Muqaddas Xamzayeva. Ingliz tilini o'rganish jarayonida talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	181
Malika Jazilova. Adabiyot darslarida badiiy asar matni ustida ishlash mexanizmlari.....	182
Shaxlo Maxmudova. Nolinoniy ta'lim muassasalari talabalari ingliz tilidagi standart til birliklari va mashhur iboralardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish.....	184
Nozimjon Abdullayev. Bo'lajak informatika o'qituvchilarini telekommunikatsion ta'lim faoliyatiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	186
Ikram Xudaynazarov. Umumiy kasbiy kompensiyalarni rivojlantirishda akademik yozuvning o'rni.....	188
Абдумалик Дедаханов. Роль фонетических игр в формировании познавательной ууд на уроках русского языка в начальных классах.....	192
Shahlo Turdaliyeva. Nutqida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda analizatorlarning funksiyalari va fikrlash operatsiyalarini rivojlantirish mazmuni.....	194
Sayyora Matkarimova. Adabiyot darslarida adabiy qahramonlar xarakteri evolyutsiyasini o'rganish asar tahlilining uzviy elementi sifatida.....	198
Lola Komilova. Ona tili mashg'ulotlarida "Blum taksonomiyasi" dan foydalanishning o'rni.....	200

TILSHUNOSLIK

Ug'iloy Bolbekova. Ingliz tilini o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmasida rivojlantirishda shadowing ta'lim texnologiyasining o'rni.....	204
Alisher Parmonov. Kinoyaning pragmalingsvistik jihatlarini.....	206
Elyorjon Hasanov. Biznes terminlarining tarixiy va zamonaviy shakllari masalalari.....	208
Umidjon Axmedov. Badiiy asar nomlarining lingvokulturologik tadqiqi.....	209
Nargiza Axmedova. O'zbek tilida "Navro'z" turtki so'zi assotsiativ maydoni.....	211
Gulnoza Jurayeva. O'zbek bolalar adabiyotini o'qitishda hajviy she'riyatning ahamiyati.....	214
Sharipboy Bobojonov. Sememani nutqqa xoslovchi morfologik omillar.....	217
Shohsanam Bobojonova. O'zbek tilida "axloq" konseptosferasining markaziy tushunchalarini ifodalovchi semantik maydon.....	219
Shahnoza Muhammadiyeva. 5-sinf o'quvchilariga izohli o'quv lug'ati uchun material tanlashning o'ziga xosligi.....	222
Ozoda Pirmatova. O'zbek tilining sholichilik bilan bog'liq termin va tushunchalarining birikmalar vositasida ifodalanishi.....	224
Shoira Xodjayeva. O'zbek tilida so'z o'zlashtirishning nazariy masalalari.....	227
Shahzoda Sobirova. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida qo'llangan ayrim harakat-holatni bildiruvchi fe'llar va ularning semantik guruhlar.....	230
Dilafruz Maxmudova. Terminlarning badiiy matnda aks ettirilishi o'ziga xos xususiyat sifatida.....	232
Nigina Sobirova. O'zbek tilidagi ilova konstruksiyalarning formal, semantik xususiyatlari hamda uning ingliz tiliga tarjimalarda berilishi.....	234
Yulduz Nurova. O'zbek xalq paremlarida mahsulot nomlarining etnolingvistik xususiyatlari.....	236
Muxlisa Sobirova. Peshona somatizmi ishtirok etgan maqollarning leksik-semantik xususiyatlari.....	240
Tamanno Vokhidova. Internet linguistics: a new direction in description internet language.....	242
Nigora Gafurova. Linguistic aspects of internet communication.....	244

MULOHAZA

Gulmira Salixanova, Ug'iloy Shadiyeva. Muzei ishi nazariyasi.....	246
--	-----

KICHIK TADQIQOT

Shahlo Halimova. Alisher Navoiy tarje'bandlarining ma'no va obrazlar olami.....	248
Shoira Axmedova, Kamola Nizomova. Adabiy ta'limda bixevoristik yondashuvning o'rni.....	250

Shoira AXMEDOVA,
O'zbek adabiyoti kafedrası professorı
Kamola NIZOMOVA,
BuxDU, 4-kurs talabasi

ADABIY TA'LIMDA BIXEVEORISTIK YONDASHUVNING O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiy ta'limda bixevoristik yondashuvning o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: integratsiya, bixevorizm, adabiyot, xulq-atvor, psixologiya, hikoya, obraz, kitobxon.

XXI asrda dunyo xaritasidan munosib o'rin olgan mustaqil O'zbekistonda barcha sohalarida boshlangan tub islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog'ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o'z ustida ishlashi, o'z-o'zini anglashi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi. Inson ruhiyatini anglash, o'z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni obyektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosi nafaqat psixologiyada, balki ko'pchilik fanlar, jumladan, Adabiyotda ham muhimdir. Ayni shu muammoni yechishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining, shu bilan birga Inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi, hatto uning ruhiyatini o'zgartirishga qodir bo'lgan Adabiyotning roli benihoya kattadir.

Psixologiya va u o'rganadigan hodisalar nafaqat ushbu fan bilan bevosita shug'ullanadigan mutaxassislariga bog'liq, balki psixologik hodisalar va ularning mohiyati bilan har qanday inson ham tanish bo'lishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak. Mustaqillik davri va uning o'zgarishlarga boy hayoti endi har bir kishining psixik hodisalar qonuniyatlarini bilishi va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zaruratini talab qilmoqda. Bu zarurat Adabiyot fani o'qitishning samaradorligini oshirishda ham namoyon bo'lmoqda.

Psixologiyaning paydo bo'lishi va fan sifatida e'tirof etilishida biologik, ijtimoiy, bixevior (xulqiga ko'ra), kognitiv, psixoanalitik, gumanistik, sotsial-psixologik yo'nalishlar asos bo'lgan [Godfrua.1992: 57-80]. Jahon psixologiyasi fanida shaxsning kamoloti, uning rivojlanishi to'g'risida xilma-xil nazariyalar yaratilgan bo'lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o'rganishda turlicha pozitsiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o'ziga xos yondashishga egadirlar. Mazkur nazariyalar qatoriga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik, bixevioristik kabi yondoshuvlarni kiritish mumkin.

K.Levin tomonidan tavsiya qilingan «fazoviy zarurat maydoni» nazariyasi

psixologiya fani uchun (o'z davrida) muhim ahamiyat kasb etadi. K.Levinning nazariyasiga ko'ra individning xulqi (xatti-harakati) psixologik kuch vazifasini o'tovchi ishtiyoq (intilish), maqsad (niyat)lar bilan boshqarilib turiladi va ular fazoviy zarurat maydonining ko'lami va tayanch nuqtasiga yo'naltirilgan bo'ladi [2. vvv.psycho.all.ru].

Psixologiyaning 300 dan ortik tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda psixologiyaning fanlar tizimida yanada ustahkamlanayotganligidan dalolat beradi, bular orasida ijtimoiy psixologiya – odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlarini natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi.

Bixevorizm (inglizcha) – xulq-atvor degan ma'noni anglatadi. Bixevorizm metodining asosida asabiylashish (noqulaylik) va unga karshi reaksiyani tadqiq etish turadi. Bixevoristika zamonaviy hayotga moslangan, sharhlangan tushunchadir. Bixevorizm–inson va hayvonot psixologiyasiga yo'naltirilganlik bo'lib, psixologiyadagi bu yo'nalish XX asr boshlaridagi amerika psixologiyasi qiyofasini aniqlashtirib berdi va psixika haqidagi taassurotlarning butun tizimini tubdan o'zgartirib yubordi. Individning xulqini boshqarish nazariyasini 1913 yilda AQShlik psixolog Dj.Uotson olib kirgan bo'lsa, B.Skinner degan olim esa bir qancha eksperimental metodlar kompleksini ishlab chiqdi [2.vvv.psycho.all.ru].

Bixevorizm insonning tug'ilganidan to o'lgunigacha bo'lgan davrdagi xulqini o'rganadi. Bixevoristlar insonning xulqini aniq vaziyatlarda qarab chiqish kerak va kuzatishlar asosida odamlarning birgalikdagi hayoti, xulqi va tarbiyasi haqidagi qoidalar kelib chiqadi deb hisoblaydilar.

Globalashuv davrida adabiyot fanini o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos tamoyillaridan biri shuki, bugungi kunda adabiyot ta'limida, badiiy matnni o'rganish va tahlil qilishda zamonaviy: a) bixevoristik b) integrativ v) kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yondashuvlar va innovatsion usullarga e'tibor qaratilmoqda.

Bixevorizm-xulq haqidagi fan, sub'ektning xulqini o'rganadi. Uning adabiyot bilan bog'liq jihati shundaki, adabiyot ham insonning xulqini tarbiyalaydi, go'zallashtiradi. Masalan, O'zbekiston xalq yozuvchisi X.Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" romani adibning yutuqlaridan biri hisoblanadi; asar o'quvchini sabr-toqatga, eng muhimi, irodali bo'lishga o'rgatadi, inson o'zini anglay olsa, har qanday qiyinchilikni yenga olishiga umid uyg'otadi.

X.Do'stmuhammadning yangi romani o'z o'quvchisini topa oldi. Chunki unda Insonning sabr-bardoshi nimalarga qodir ekanligi, ma'nisiz hayotdan ma'no topa bilish, buning uchun inson o'zligini anglab yetishi zarurligi g'oyasi ilgari suriladi. Asar garchand an'anaviy romanlarga o'xshamasa-da, istiqloq davri kitobxonlarining qalbini zabt eta oldi, o'quvchi xulqini o'zgartirishga qodir asarlardan biri bo'lib qoldi.

Bixevoristik yondashuv asosida badiiy matnni chuqur o'rganish, keng tahlil qilish orqali o'quvchining xulq-atvorini o'zgartirish, tarbiyalash, ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin. Masalan, faylasuf shoir, milliy nasr ustasi G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" [G'.G'ulom.1979: 46]. hikoyasini o'qimagan o'zbek kitobxoni bo'lmasa kerak. Hikoya o'quvchi xulq-atvorini, xarakterini tarbiyalashda juda katta ahamiyatga egaligi adabiyotshunos olimlar tomonidan to'g'ri ta'kidlangan [Mamajonov.1980]. Chunki "bola o'z hayotini mehr-muhabbat, ezgulik va adolat tushunchasi bilan boshlaydi", -deb yozadi E.Fromm [Fromm.2016:25].

Hikoyaning boshidayoq tilga olinadigan va asar oxirigacha o'quvchining mehrini qozonib, hurmatga sazovor bo'lgan nuroniy kampir – Qora buvi obrazi o'quvchida katta taassurot qoldiradi. Bu obraz Onalarning mehri daryo qalbini his eta bilish, uni e'zozlash tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qila oladi. Hikoyadagi nuroniy, mushfiq, nevaralari kelajagini o'ylab, ko'ziga uyqu ilinmaydigan Ona-buvi timsolida o'quvchi insonning insonga bo'lgan mehrini ko'radiki, bu uning xulqida o'zgarish paydo qilishiga olib keladi.

G'.G'ulom xalqning boy tilidan zukkolik bilan foydalanish orqali kichik bir hikoyada katta bir olam – milliy o'zbek xarakterini yarata olgan. Kampir va o'g'rining serhasrat suhbatidan birinchi jahon urushi to'zoni tufayli nochor ahvolga tushib qolgan mehnatkash xalq turmushi, manzarasi shundoqqina ko'z oldimizda gavdalanadi. Kampir ham, o'g'ri ham o'sha hayotning zarrasi. Kampirning holidan xabardor bo'lgan o'g'ri o'zining shum niyatini unutib, kampirning hamdardiga aylanadi-unga "buvijon" deb murojaat qiladi, o'tinini yorib berib, ozgina bo'lsa-da, yordam berishni istaydi. Kampir ham katta olijanob qalb egasi: o'g'rining dardini eshitib, uning holiga chindan achinadi, uni o'ziga yaqin olib "o'g'rigina bolam" "deya erkalaydi, qutlug' uydin quruq ketmaslikni maslahat beradi, unga ishlatilmayotgan yarim pudlik qozonni sovg'a qiladi. Yigit esa yetimlar rizqini olib ketishni o'ziga ep ko'rmaydi. Ularning bir-birlariga munosabatlarida o'zbekka, millatimizga xos bo'lgan jami yaxshi fazilatlar mujassamligini o'quvchi matnni o'qib, uqib tushunib yetadiki, bu fazilatlar ularni insoniylik ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

O'g'rining hikoya davomida o'quvchi nazarida yaxshi odamga, mehr va ardoqqa munosib kishiga aylanib qolishi – bu endi yozuvchi mahoratining ajoyib sehri. Adib saxovatining bir ehsoni, G'.G'ulom realizmining mo'ljizakor qudratidir.

Hikoyaning o'quvchi xulq-atvori, ruhiyatiga ta'sir etadigan yana bir qirrası borki, bu hikoyaning beozor, yengil kulgi asosiga qurilganligi bilan bog'lanadi. Haqiqatdan ham milliy ruh bilan yo'g'rilgan hikoyani o'qir ekansiz, achinish bilan birga yuzingizda kulgu, tabassum ham yuguradi. Bu kulgining ma'naviy-ruhiy jihatdan afzalligi shundaki, u hamisha bola kayfiyatini ko'tarib, uning asablariga dam berib, miyasining ishlash faoliyatiga katta yordam beradi.

Hikoya tahlilida bixevoristik yondashuvdan foydalanish o'quvchining xulq-atvorini yaxshi tomonga o'zgartirishga olib kelishi mumkin. Aslini olganda o'g'rilik gunoh ekanligi, ammo zamona zayli bilan o'zi istamagan holda bu yo'lga kirib qolgan insonning o'z xatosini anglashi va Ona mehri oldida tiz cho'kishi yosh kitobxonni befarq qoldirmaydi.

Hayotda kulgining turlari, ko'rinishlari juda ham ko'p. Inson tabiati kamalaksimon rang- barang bo'lganidek, uning kulgisi ham turfa xildir. Kulgi quvonchli va qayg'uli, muloyim va qo'pol, samimiy va g'azabli, do'stona va zaharli, yoqimli va yoqimsiz va h.k. ko'rinishlarga ega bo'lishi haqida o'quvchilarga ma'lumot beriladi. Satiradan farqli o'laroq, yumorning poydevori samimiy, hayotbaxsh, do'stona, oqlovchi kulgi asosiga qurilgan bo'ladi. Do'stona yumorda kulgi ostiga olingan kamchiliklar ba'zan tabassum uyg'otadi, bunday kamchiliklar biz sevgan, qadrlagan, bizda yoqimli his uyg'ota oladigan kishilargagina xosdir. Bunday kulgi hukm chiqarmaydi, balki simpatiya, muhabbat, mehr uyg'otishga xizmat qiladi, kitobxon xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirishga, tabiatini go'zallashtirishga xizmat qiladi, shu bilan birga uning ruhiyatiga ham ta'sir qiladi [Axmedova.1998:34].

Yumoristik kulgi insoniyatning va xususan har bir kishining ajralmas sifatlaridir, ularsiz bizning mavjudligimizni tasavvur qilib bo'lmaydi. Go'dak, taxminan hayotining 40-kunidan boshlab kulishni boshlaydi, butun hayoti davomida kulishda davom etadi va shu tariqa kulish inson hayotining asosiy shartlaridan biriga aylanib qolgan.

Yumor yarashish, tartibga solish va ijtimoiy qadriyatlarni saqlash vositasi sifatida madaniyatning muhim qismi bo'lib, milliy ong va munosabat xususiyatlarini aks ettiradi. Yumor aloqa shakli va dunyoqarash fenomeni sifatida, zamonaviy yumor Yu.V.Latishev fikricha, globallashuvning zamonaviy amoyillari va industrial jamiyat shakllanishi hamda tolerantlik, birdamlik va ijodkorlikning ustuvor yo'nalishlarini tasdiqlaydigan davrda tobora ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun bu madaniyat fenomeni etnopsixologiya, lingvomadaniyatshunoslik, adabiyot, adabiyotshunoslik, san'atshunoslik, psixolingvistika va boshqa fanlarning o'rganish ob'ekti hisoblanadi.

Demak, psixologiya va adabiyotda badiiy asardagi kulgi kitobxonning ma'naviy olami, ruhiyatini boyituvchi vositalardan biri ekanligini bixevoristik yondashuv asosida kitobxon qalbiga singdirish muhim vositalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova Sh. Yumor jilolari. – Toshkent: "Fan", 1998.
2. Godfrua J. Chto takoe psixologiya: V 2-x t. T.1. Per. s frants. M., Mir, 1992. -496 s. 57-80-b.
3. Do'stmuhammad X. Donishmand Sizif. – Toshkent, 2018.
4. vvv.psycho.all.ru
5. Mamajonov S. G'afur G'ulom prozasi. – Toshkent, 1978.
6. Fromm E. Inson qalbi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016. 101-b.
7. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. 6-tom. – Toshkent, 1979.